

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/07.06.2024.Ped.27.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

XAMRAXODJAYEVA SURAYYO JURAYEVNA

IQTISODIYOT YO‘NALISHI TALABALARIGA NEMIS TILINI
O‘QITISHDA IJODIY YOZISH KO‘NIKMALARINI
TAKOMILLASHTIRISH USULLARI

13.00.02 - Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (nemis tili)

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent-2025

UO‘K: 378.091.33:811.112.2’35

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijsi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Xamraxodjayeva Surayyo Jurayevna

Iqtisodiyot yo‘nalishi talabalariga nemis tilini o‘qitishda ijodiy yozish
ko‘nikmalarini takomillantirish usullari.....3

Хамраходжаева Сурайё Жураевна

Методы совершенствования навыков креативного письма при обучении
немецкому языку студентов экономического направления.....25

Khamrakhodjaeva Surayyo Juraevna

Methods of improving creative writing skills when teaching German language to
economics students.....51

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published articles.....55

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/07.06.2024.Ped.27.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

XAMRAXODJAYEVA SURAYYO JURAYEVNA

IQTISIDIYOT YO‘NALISHI TALABALARIGA NEMIS TILINI
O‘QITISHDA IJODIY YOZISH KO‘NIKMALARINI
TAKOMILLASHTIRISH USULLARI

13.00.02 - Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (nemis tili)

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent-2025

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2022.1.PhD/Ped3197 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.uzswlu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tadjibayeva Dilbar Axmedovna

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Xoshimova Dildorxon Urinboyevna

pedagogika fanlari doktori, professor
(kengash a'zosi)

Ziyayeva Sevara Anvarovna

pedagogika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi PhD.03/07.06.2024.Ped.27.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "___" _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-A uy. Tel.: (99871) 230-12-91. Faks: (99871) 230-12-92. Email: uzswlu_info@mail.ru).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-A uy. Tel: (99871) 230-12-91. Faks: (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "___" _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil "___" ___ dagi ___ - raqamli reyestr bayonnomasi).

L.T. Axmedova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, p.f.d., professor

A.B. Raxmonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, p.f.d. (DSc), dotsent

K.Sh. Muradkasimova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, p.f.d.
(DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tajribasiga tayangan holda, xorijiy til o'qitish sohasidagi olimlar yozma nutqni rivojlantirishga qaratilgan turli yondashuvlarga asoslangan o'qitish metodlarini taklif etmoqdalar. Bu usullar orasida ijodiy yozuv ko'nikmalarini shakllantirish tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, bu iqtisodiy yo'nalishlarda tahsil olayotgan talabalar uchun muhimdir, chunki xorijiy tilida original, mantiqan to'g'ri tuzilgan matnlar yozish qobiliyati bevosita professional kompetensiyani shakllantirish bilan bog'liq. Kasbiy tayyorgarlik jarayonida ijodiy yozuv talabalar tafakkurining tahliliyligini, fikr yuritish va dalillash qobiliyatini, shuningdek, ma'lumotni aniq kommunikativ vazifalarga moslashtirish ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa bo'lajak mutaxassislarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshiradi.

Ko'plab davlatlarda, jumladan Germaniya (Berlin Gumboldt universiteti, Myunxen Lyudvig Maksimilian universiteti), Avstriya (Vena universiteti), Shveytsariya (Syurix universiteti), Buyuk Britaniya (Oksford universiteti, Kembrij universiteti), AQSH (Garvard universiteti, Stenford universiteti)da xorijiy tilda ijodiy yozuvni rivojlantirishga qaratilgan uslublarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda va maxsus dasturlar joriy etilmoqda. Bu esa tanlangan mavzuning dolzarbligini hamda xalqaro tajribani O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim tizimi sharoitlariga moslashtirish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini isloh qilish va yangi avlod kadrlarini tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xorijiy tillarni o'qitishni takomillashtirish, kreativ fikrlashni rivojlantirish, elektron vositalardan samarali foydalanish, talabalarda xorijiy tilda original g'oyalarni ilgari surish va ro'yobga chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan normativ asoslar yaratilmoqda. Xorijiy tillarni o'rganish masalasi 2021-yil 6-may kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida muhokama qilingan. O'z nutqida Prezidentimiz xorijiy tillarni o'qitishni takomillashtirish va kreativ tafakkurni rivojlantirish muhimligini ta'kidlagan. «Xorijiy tillarni o'qitishning yangi tizimini yaratish vaqti keldi. Bu tizim kelajak poydevoriga aylanadi», — degan edi davlat rahbari. Natijada talabalarda xorijiy tilda ijodiy yozuvni shakllantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha didaktik imkoniyatlar kengaymoqda.

Ushbu tadqiqotning normativ-huquqiy asosini quyidagi hujjatlar tashkil etadi: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022–2026 yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni; 2019-yil 8-noyabrdagi PF-5847-sonli "2030 yilgacha oliy ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi Farmoni; 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6097-sonli "O'zbekiston Respublikasida ta'lim va fan sohalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni; 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish bo'yicha chora-tadbirlar

to'g'risida"gi Qarori; 2023-yil 4-apreldagi PQ-108-sonli "Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda boshqaruv kadrlarini tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va ilmiy yondashuvlarni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori; hamda 2022-yil 20-yanvardagi VMQ-34-sonli "Xorijiy tillarni o'rganish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasi Qarori. Mazkur hujjatlar innovatsion ta'lim uslublarini joriy etish, kreativ tafakkur ko'nikmalarini shakllantirish hamda talabalar orasida ko'p tillilik kompetensiyasini rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi. Dissertatsion tadqiqot O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiq ravishda bajarilgan: I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatning ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ta'limiy rivojlanishida innovatsion g'oyalarni shakllantirish va amalga oshirish yo'llari".

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda chet tilini o'qitish masalalari L.T. Ahmedova, G.X. Bakieva, M.S. Dadaxodjayeva, D.R. Djumanova, M.Djusupov, J.J. Jalolov, S.A. Ziyayeva. G.A. Inomova, X.A. Mamatkulov, B.R. Samatova, T.K. Sattarov, I.M. Tuxtasinov, K.Sh. Muradkasimova, A.B. Raxmonov, J.R. Abdug'aniyeva, D.A. Tadjbayeva, D.U. Xoshimova kabi tadqiqotchilarning ishlarida yoritilgan.¹ Ularning ishlari chet tillarni o'qitishning turli jihatlariga, masalan, o'qitish metodikasi, lingvistik kompetentsiyani rivojlantirish va talabalar motivatsiyasiga qaratilgan. Ushbu

¹ Ахмедова Л.Т. Теория и практика обучения профессиональной русской речи студентов-филологов. -Т.: Фан ва технология, 2013-200с.; Бакиева Г.Х. Узбекский язык для стран СНГ. Москва: МГЛУ, 2012. - 120с.; Джуманова Д.Р. Фонологическая модель слова в условиях языкового контактирования.: Дисс. ... докт. фил. наук. – Ташкент, 2011. 266 с.; Джусупов М., Кудакеева А.З., Мажитаева Ш. Фразеология русского языка: лингвистические и методические проблемы. – Т.: Фан, 2008. – 223 с.; Жалолов Ж.Ж. Чет тил ўқитиш методикаси. – Т.: "Ўқитувчи, 2012. – 432 б.; Зияева С. А. Совершенствование социолингвистической компетенции студентов языковых высших образовательных учреждений при обучении немецкому языку: Автореф. дисс. докт. пед. наук. – Т., 2020. 72 с.; Инамова Г.А. Инглиз тили дарсларида ўқувчиларнинг тинглаб тушуниш кўникмасини аудиовизуал воситалар орқали ривожлантириш методикаси. Автореф. Дисс. ... пед. фан. фалсафа док. - Тошкент, 2022.; Маматкулов Х.А. Педагогларда хорижий тиллар бўйича касбий компетентликни ривожлантиришнинг ахборот-методик таъминотини такомиллаштириш: Дисс. ...автореф. пед.фан. бўйича фалсафа док-ри – Т., 2017. – 46 б.; Саматова Б.Р. Инглиз тилини ўқитишда нофилологик йўналиш талабаларининг мотивацияси. Дисс. ... пед. фан.фалсафа док.- Тошкент, 2017.; Саттаров Т.К. Формирование профессиональных умений будущего учителя иностранного языка на практических занятиях по специальности (на материале английского языка): Автореф.дис...д-ра пед.наук-Ташкент, 2000. 32с.; Тухтасинов И.М. Таржимон тайёрлашда касбий компетенцияларни эквивалентлик ходисаси асосида ривожлантириш: Автореф. дисс. докт. пед. наук. – Т., 2018. -23 б.; Мурадкасимова К.Ш. Бўлажак мутахассисларнинг баҳолаш компетенциясини такомиллаштириш концепцияси: Пед. Фан. док. дис. – Тошкент: ЎзДЖТУ, 2022. – 200 б.; Рахманов А.Б. Формирование профессиональной компетенции будущих учителей русского языка в самообразовательной деятельности.: Авторефер. Дис. ...док. пед. наук. – Ташкент, 2022. – 82 с.; Абдуганиева, Дж.Р. Лингводидактические особенности обучения последовательному переводу студентов языковых вузов. Автореф. Дисс. ...пед. фан.фалсафа док. - Тошкент, 2020.–175 б.; Таджибаева Д.А. Формирование иноязычной коммуникативной компетенции у детей младшего школьного возраста (на примере немецкого языка): дис...док.фил.наук. – Ташкент, 2020. – 138 с.; Хошимова Д.У. Лингводидактические основы изучения лагун в контексте современного функционирования русского языка и межкультурных взаимодействий: Дис. ... докт. пед. наук. – Ташкент, 2007. 209 с.

tadqiqot doirasida ijodiy yozuvning turli jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan mahalliy olimlarning, masalan, N.A. Abduxalimov, F.Sh. Alimov, Sh.I. Ismoilov, G.X. Karimova, L.T. Norbekova, D.A. Saidova, N.M. Yuldosheva ishlari tahlil qilindi.²

Shunday qilib, mahalliy olimlarning ishlarini tahlil qilish o'rganilayotgan muammoning dolzarbligi va yangiligini, shuningdek, iqtisodiyot yo'nalishdagi talabalarni kasbiy tayyorlashning muhim komponenti sifatida ijodiy yozuvni yanada o'rganish zarurligini ta'kidlaydi.

MDH mamlakatlarida pedagogika va psixologiya metodikasi sohasida tadqiqotlar olib borgan olimlar qatoriga I.L. Bim, B.A. Gluxov, I.A. Zimnyaya, E.I. Passov, O.G. Polyakov, E.N. Solovova, A.N. Shchukin kiradi.³ Nemis tilini o'qitish metodikasi va ijodiy yozuv sohasida tadqiqotlar olib borgan olimlar qatoriga I.V. Golovan, N.V. Guzhova, I.Yu. Essina, E.V. Jitkova, N.G. Kizrina, L.G. Kuzmina, O.I. Savilova, K.P. Yashchenko kiradi.⁴

² Абдухалимов Н.А. (2010) в своей работе "Методы развития креативного письма у студентов экономического направления" описывает подходы и методы, применяемые для формирования умений креативного письма у студентов экономических специальностей; Алимов Ф.Ш. Некоторые трудности формирования навыков и умений английской письменной речи у студентов-узбеков на нефилологических факультетах. - Преподаватель XXI век, 2012. – С.217-220.; Исмаилов Ш.И. (2015) в статье "Креативное письмо как средство развития коммуникативных навыков у студентов" анализирует влияние креативного письма на развитие коммуникативных способностей студентов, подчеркивая важность использования креативных методик в учебном процессе; Каримова Г.Х. (2012) в своей диссертации "Развитие критического и креативного мышления у студентов в процессе обучения иностранному языку" исследует взаимосвязь между обучением креативному письму и развитием критического мышления у студентов; Норбекова Л.Т. (2017) в научно-методическом журнале Навоийского государственного университета представила исследование "Влияние креативного письма на развитие языковой компетенции студентов", в котором рассматривается влияние креативного письма на совершенствование языковых навыков; Саидова, Д.А. (2020) в своей работе "Креативное письмо в системе обучения иностранным языкам: теория и практика" подчеркивает значимость креативного письма как методики обучения иностранным языкам, предлагая практические рекомендации для преподавателей; Юлдашова Н.М. Лингводидактические особенности использования технологии TBLT в совершенствовании письменной дискурсивной компетенции студентов. Автореф. дисс. докт. пед. наук. – Т., 2024. -68 с.

³ Бим И.Л. Теория и практика обучения немецкому языку в средней школе. Проблемы и перспективы. – М.: Просвещение, 1988.; Глухов Б.А., Щукин А.Н. Термины методики преподавания русского языка как иностранного. М.: Русский язык, 1993. 369 с.; Зимняя И.А. Педагогическая психология. – М.: Изд-во Московского психолого-социального ин-та.; Пассов Е.И., Кузовлева Н.Е., Основы коммуникативной теории и технологии иноязычного образования методическое пособие для преподавателей русского языка как иностранного. М: Русский язык. Курсы, 2010.568 с.; Поляков, О.Г. Тест как средство контроля при коммуникативном подходе к обучению иностранному языку / О. Г. Поляков: Дис. канд. пед. наук: 13. 00. 02.- М., 1995.- 155 с.; Соловова Е.Н. Методика обучения иностранным языкам: Базовый курс лекций: Пособие для студентов педагогических вузов и преподавателей. - М: Просвещение, 2002. - 239 с.; Щукин А.Н. Методика обучения речевому общению на иностранном языке. Учебное пособие для преподавателей и студентов языковых вузов. – М: Издательство Икар, 2011. - 454 с.

⁴ Головань И.В. Обучение креативной письменной речи на второй ступени общего образования (на материале немецкого языка). Автореф. дисс. канд. пед. наук. – Москва, 2008. -24 с.; Гужова Н.В. Методика обучения иностранных граждан продуктивной письменной речи на начальном этапе обучения (На материале сочинения с элементами рассуждения) Текст. / Н.В. Гужова: Автореф. дис. канд. пед. наук: 13.00.02. -Н. Новгород, 2002. 23 с.; Ессина И.Ю. Развитие иноязычной письменной речи будущих юристов (на примере обучения английскому языку): дис. ... канд. пед. наук. Саратов, 2003. 175 с.; Житкова Е.В., Карпова Н.А., Козловская Е.В. Креативное письмо при обучении взрослых иностранному языку: учебно-методическое пособие/под ред. канд. филол. наук Н.А. Карповой. – Томск: Издательство Томского государственного университета, 2021. – 108 с.; Кизрина Н.Г., Обучение студентов третьего курса языкового вуза креативному письму: немецкий язык: диссертация ... кандидата педагогических наук: 13.00.02 / Кизрина Наталья Геннадьевна; [Место защиты:

Evropa mamlakatlarida ijodiy yozuv ko'nikmalarini o'rgatish usullarini K. Bothe, I. Böttcher, G. Brenner, M. Gay, F. Martin, B. Mosler, R. Oldenburg, I. Schreiter, K. Spinner, G. Waldmann, L. Werder va J. Wolfrum kabi olimlar o'rganib, ushbu sohaning rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar.⁵

Umuman olganda, ingliz, frantsuz, nemis va ispan tillari materiallari asosida notilshunoslik universitetlarining talabalari uchun ijodiy yozishni o'rganish usullarini o'rganish amalga oshirildi. Ammo bu tadqiqot kam o'rganilgan bo'lib qolmoqda.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsion tadqiqot O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining "Doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va talabalarining ilmiy-tadqiqot hamda ilmiy-ijodiy ishlari" yo'nalishi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan (2022-2024 yillar).

Tadqiqotning maqsadi iqtisodiy yo'nalishdagi talabalarda nemis tilida ijodiy yozuv ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan samarali metodikani ilmiy asoslash va ishlab chiqishdir.

Tadqiqotning vazifalari:

iqtisodiy yo'nalishdagi talabalarda nemis tilini o'rganish jarayonida ijodiy yozuv ko'nikmalarini shakllantirishning xususiyatlari va qiyinchiliklarini aniqlash (kognitiv, motivatsion va kasbiy omillarni inobatga olgan holda);

talabalarining kasbiy yo'naltirilgan yozma kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan ijodiy yozuvga o'qitishning mualliflik modelini ishlab chiqish va nazariy asoslash;

Нижегор. гос. лингвист. ун-т им. Н.А. Добролюбова]. - Нижний Новгород, 2009. - 179 с.: ил. РГБ ОД, 61 09-13/1938; Кузьмина, Л. Г. Социокультурные аспекты развития иноязычной письменной речи в послевузовском образовании Текст. / Л. Г. Кузьмина: Автореф. дис. канд. пед. наук: 13. 00. 02-М., 1998.-21 с.; Савилова О.И. О креативном письме на занятиях по немецкому языку // Психология и педагогика. 17.12.2007. С. 143-144. URL: sun.tsu.ru/mminfo/000063105/307/image/307-143-144.pdf; Яценко К.П. Обучение письменной речи как творческой деятельности в форме описания Текст. / К. П. Яценко: Автореф. дис. канд.пед. наук: 13.00.02. Минск, 1973. - 20 с.

⁵ Bothe, K. Waldmann, Günter: Erzählen: eine Einführung in kreatives Schreiben und produktives Verstehen von traditionellen und modernen Erzählformen. Text. / K. Boethe, G. Waldmann. Stuttgart: Klett, 1992. - 65 S.; Böttcher, Ingrid (Hrsg.): Kreatives Schreiben. Grundlagen und Methoden. Beispiele für Fächer und Projekte. Schreibbecke und Dokumentation. Berlin: Auflage, 2008. – S. 87.; Gay, Marion. Türen zur Fantasie. Kreatives Schreiben im Unterricht mit 100 Schreibspielen / Marion Gay. - Berlin, 2012. - S. 9.; Martin Fix, (2008). Texte schreiben. Schreibprozesse im Deutschunterricht. Paderborn: Schöningh. – S. 26.; Mosler, B. Die Musenkussmischmaschine. 128 Schreibspiele für Schulen und Schreibwerkstätten Text. / B. Mosler, G. Herholz. — Essen: Deutsche Schule, 1992.- 139 S.; Oldenburg, R. Schreiben ist: die Wahrheit proben Text. / R. Oldenburg, Martin Walser- Düsseldorf: Dirk Lehrach Verlag, 2003. S. 67 - 88.; Schreiter I. Schreibversuche. Kreatives Schreiben bei Lernern des Deutschen als Fremdsprache. München: ludicium Verlag, 2002. 235 S.; Spinner K. Kreativer Deutschunterricht. Seelze: Kallmeyer Verlag, 2001. 192 S.; Waldmann, G. Erzählen. Eine Einführung in kreatives Schreiben und produktives Verstehen von traditionellen und modernen Erzählformen Text. / G. Waldmann, K. Boethe. Stuttgart: Klett, 1992. - 260 S.; Werder, L. Lehrbuch des kreatives Schreibens Text. / L. Werder 3. Auflage-Berlin: Schibri-Verlag, 1996.-231 S.; Wolfrum, J. Kreativ Schreiben. Gezielte Schreibförderung für jugendliche und erwachsene Deutschlernende (DaF, DaZ). Auflage, Hueber Verl., 2010. – S.52.

raqamli va interaktiv resurslardan foydalangan holda nemis tilida ijodiy yozuvga o'qitish uchun mashqlar tizimini, o'quv qo'llanmasini hamda metodik tavsiyalarni yaratish;

ta'lim amaliyotida mualliflik metodikasining samaradorligini baholash va uni sinovdan o'tkazishga yo'naltirilgan pedagogik tajriba o'tkazish.

Tadqiqotning ob'yekti iqtisodiy yo'nalishdagi 3–4-bosqich talabalarda nemis tilida ijodiy yozuv ko'nikmalarini shakllantirish jarayonidir. Ushbu tadqiqotda A2 (CEFR bo'yicha) darajasida til bilimiga ega bo'lgan talabalarga mos uslublarni ishlab chiqish asos qilib olingan bo'lib, ularni B1 va undan yuqori darajadagi talabalar uchun moslashtirish imkoniyati ham ko'zda tutilgan.

Tadqiqotning predmeti kasbga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida nemis tilida ijodiy yozuv ko'nikmalarini takomillashtirish usullari, vositalari va shakllaridir.

Tadqiqot usullari. Nazariy adabiyotlar tahlili, me'yoriy hujjatlarni tahlil qilish, modellashtirish, pedagogik kuzatuv, so'rovnoma, eksperimental ta'lim, matematik-statistik tahlil usullari.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

iqtisodiyot yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarda ijodiy yozuv kompetentsiyasini rivojlantirish maqsadida Prozessansatz (protsessual yondashuv) asosida tuzilgan Vor dem Schreiben (yozishgacha tayyorgarlik), Textproduktion (matn tuzish), Überarbeitung (qayta ko'rib chiqish), Redigieren (taxrirlash) bosqichlarini qamrab oluvchi o'qitish modeli asosida, Peer-Editing (o'zaro tahrirlash) texnikasiga mos raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali iqtisodiyotga oid janrlarda pragmatik intentsiyani shakllantirishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan;

iqtisodiyot yo'nalishi talabalarining nemis tilidagi ijodiy yozuv kompetentsiyasini rivojlantirishda tayyorlovchi, mahsuldor va baholash bosqichlarini qamrab olgan 3 bosqichli o'qitish metodikasi mazmun komponenti sifatida janrli vositalar, amaliy vazifalar va semantik-nazariy materiallarni dizayn-mulohaza, personifikatsiya hamda kreativ nutq faoliyatini tarbiyalashga qaratilgan integrativ ta'limiy strategiyalar asosida bosqichma-bosqich modellashtirish orqali takomillashtirilgan;

iqtisodiyot yo'nalishi talabalarining nemis tilidagi ijodiy yozuv kompetentsiyasini baholash mezonlari tizimi 4 komponentli deskriptorlarni holatli baholash stsenariylari bilan funktsional jihatdan integratsiya qilish, hamda CEFR darajalariga mos lingvodidaktik kontentlar asosida ichki (ta'lim jarayonidagi) va tashqi (yakuniy) baholash mezonlarini uyg'unlashtirish orqali differentsiallikni nazarda tutuvchi kompleks monitoring takomillashtirilgan;

iqtisodiyot yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarda nemis tilidagi ijodiy yozuv kompetentsiyasini rivojlantirishga qaratilgan didaktik ta'minot, kreativ nutq faoliyatini ta'minlovchi asosiy nutqiy aktlar semasini kognitiv-metodik tizimga integratsiya qilish va ularni funktsional-maqсадli o'qitish vazifalari bilan uyg'unlashtirish orqali takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

iqtisodiy yo'nalishdagi talabalarda nemis tilida ijodiy yozuv ko'nikmalarini shakllantirish uchun mashqlar va situatsion topshiriqlar tizimi ishlab chiqildi va ta'lim jarayoniga joriy etildi. Tizim kognitiv murakkablik, kasbiy yo'naltirilganlik va darajaviy tipologiya tamoyillariga asoslangan bo'lib, talabalarni nutqiy, kommunikativ va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantiradi;

«Methoden zur Vermittlung kreativer Schreibfähigkeiten im berufsbezogenen Deutsch» nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqildi (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi guvohnomasi №233, 19.07.2022 y.), qo'llanma o'zbek, rus va nemis tillarida tayyorlangan bo'lib, u til yo'nalishidagi bo'lmagan OTM talabalari uchun mo'ljallangan. Ushbu qo'llanma Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ta'lim jarayonida sinovdan o'tkazildi;

ijodiy yozuvni shakllantirish jarayonida raqamli o'quv vositalarini (interaktiv doskalar, matn generatorlari, nutq sintezatorlari, internet-resurslar) integratsiyalash bo'yicha ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar talabalarning motivatsiyasini oshirishga va yozma mahsuldorligini faollashtirishga xizmat qiladi;

pedagogik eksperiment natijalari ishlab chiqilgan metodika va mashqlar tizimining samaradorligini ko'rsatdi: eksperimental guruhlardagi talabalar nazorat guruhlariga nisbatan ijodiy yozuv ko'nikmalarining rivojlanishida ijobiy o'zgarishlarni namoyon etishdi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan nazariy ma'lumotlar va usullar ishonchli manbalardan olinganligi, eksperimental ishlarning samaradorligi matematik-statistik usullar bilan asoslanganligi, olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi, shuningdek, xulosalar va tavsiyalar amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati talabalarining yozma rivojlanish jarayonini tashkil etishda namoyon bo'ladi, bu esa ishlab chiqilgan lingvodidaktik sharoitlarni hisobga olgan holda qurilgan, ta'lim sifatini va kommunikativ tayyorgarlikni oshiradi, charchoqni keltirib chiqarmaydi, ishtirokchilarning psixologik muhitini yaxshilaydi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati innovatsion ta'lim sharoitida natijalar, takliflar va tavsiyalarni amaliyotda qo'llash imkoniyati bilan belgilanadi; «Methoden zur Vermittlung kreativer Schreibfähigkeiten im berufsbezogenen Deutsch» o'quv qo'llanmasidan foydalanish (19.07.2022, №233-0631 / 26.10.2023, №340), nemis tili darslarida faol qo'llaniladigan, yozma topshiriqlar va mashqlarni qamrab oladi, bu talabalarining nemis tilida ijodiy yozish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan metodik va amaliy tavsiyalar asosida:

nemis tilidagi «Methoden zur Vermittlung kreativer Schreibfähigkeiten im berufsbezogenen Deutsch» nomli o'quv qo'llanmasiga (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining №233-0631-sonli guvohnomasi, 2022-yil

19-iyul) o'quvchilarning grammatik ko'nikmalari va ijodiy salohiyatini rivojlantirish bo'yicha takliflar kiritilgan. Ushbu takliflar original matnlar yaratish, yozma til orqali axborot, niyat va fikrlarni ifodalashga qaratilgan yozma muloqot vositalaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Natijada talabalar nemis tilida yozish ko'nikmalarini va ijodiy fikrlash malakasini sezilarli darajada oshirishga erishdilar;

iqtisodiy mutaxassisliklar bo'yicha tahsil olayotgan talabalar uchun ijodiy yozuv ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyasi bo'yicha takliflar 2019–2023 yillarda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida amalga oshirilgan IL-662204329-sonli "Iqtidorli talabalar bilan ishlash jarayonlariga raqamli transformatsiyani joriy etish" loyihasi doirasida (loyiha rahbari – PhD G. Saidullayeva) qo'llanildi. Interaktiv doskalar, kompyuterlar, internet-resurslar, multimedia taqdimotlar, elektron darsliklar, lug'atlar, audio va video materiallar, hamda ijodiy yozuv dasturlaridan foydalanish talabalarning nemis tilidagi ijodiy yozish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi. (Mazkur loyihada S. Xamraxo'jayeva ishtirok etmagan. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining № 4/17-4/2-168-sonli ma'lumotnomasi, 2024-yil 10-iyun). Natijada, raqamli vositalardan foydalanish talabalarda ijodiy yozuv ko'nikmalarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi;

iqtisodiy yo'nalishdagi talabalarda ijodiy yozuv ko'nikmalarini shakllantirish modeli bo'yicha takliflar – bu uslubiy yondashuvlar namunalarini tahlil qilish, o'z matnlarini yaratish, yozma va og'zaki nutqning uslubiy xususiyatlarini, shuningdek xorijiy tildagi ijodiy yozuvdagi zamonaviy tendensiyalar va motivlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Ushbu yondashuvlar «Nemischa-o'zbekcha-ruscha maqol va matallar» nomli o'quv qo'llanmaga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining №356-414-sonli guvohnomasi, 2021-yil 18-avgust). Natijada talabalar nemis tilida og'zaki va yozma savodxonlik, hamda kommunikativ kompetensiyani shakllantirdilar;

nemis tilida ijodiy yozuv bo'yicha ta'lim metodikasini takomillashtirish bo'yicha takliflar, xususan obrazli ifoda vositalari, multimedia elementlari, badiiy dialog orqali insonlar orasidagi muloqotni yaratish, shuningdek tilning yangi shakllarini aniqlash uchun miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilish uslublarini birlashtirish o'quv amaliyotiga tatbiq etildi. Bu takliflar «Methoden zur Vermittlung kreativer Schreibfähigkeiten im berufsbezogenen Deutsch A2» nomli o'quv qo'llanmasiga kiritildi (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining № 4/17-4/2-167-sonli ma'lumotnomasi, 2024-yil 28-may). Natijada, ushbu qo'llanma asosiy (A2) darajasida muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda va ijodiy yozuv ko'nikmalarining boshlang'ich shakllanishiga imkon yaratmoqda. Yuqori kurs (3–4-kurs) talabalari uchun esa taklif etilgan metodika B1 va undan yuqori darajalarga mos keluvchi murakkabroq topshiriqlarga moslashtiriladi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 32 ta ilmiy maqola chop etilgan, shundan 6 tasi doktorlik ilmiy natijalarini e'lon qilish uchun OAK tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda, 3 tasi respublika va 3 tasi xorijiy nashrlarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 121 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish dissertatsion tadqiqot mavzusining dolzarbligi asoslab berilgan, uning hozirgi zamon til ta'limi va iqtisodiy sohadagi mutaxassislarni tayyorlashdagi o'rni ko'rsatilgan. Mavzuning O'zbekiston Respublikasida ilm-fan va ta'limni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi va bu boradagi normativ hujjatlardagi (PF, PQ, VMQ) ifodasi qayd etilgan. Muammoning ilmiy o'rganilganlik darajasi yoritilgan, yozma nutq va ijodiy yozuv metodikasi bo'yicha zamonaviy mahalliy va xorijiy tadqiqotlar tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'ekti, predmeti va uslublari aniqlangan. Ilmiy-amaliy ahamiyati, natijalarning ishonchiligi, ta'lim jarayoniga tatbiq etish shakllari bayon etilgan. Dissertatsiya tuzilmasi va hajmi ko'rsatilgan.

Birinchi bobda, **“Xorijiy tilda ijodiy yozishni o'rgatish metodlarini takomillashtirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan dissertatsiyada, xorijiy tilni o'rganish jarayonida ijodiy yozuv ko'nikmalarini shakllantirishning konseptual va metodologik asoslari ko'rib chiqilgan. “yozuv”, “yozma nutq”, “ijodiy yozuv” tushunchalari nazariy tahlil qilingan, ularning o'quv faoliyati doirasidagi o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Yozuv faqat tilning grafik shaklda ifodasi sifatida emas, balki mantiq, e'tibor, tilga aniqlik va uslubiy ongli yondashuvni talab etadigan kognitiv va nutqiy faoliyat shakli sifatida talqin etilgan.

Yozma nutq faqat tilni grafik ifodalashning texnik jarayoni sifatida emas, balki mantiq, e'tibor, tilga xos aniqlik va uslubiy ongillikni talab qiluvchi intellektual va nutqiy faoliyat vositasi sifatida talqin qilinadi.

Ijodiy yozuvga yozma nutqning innovatsion turi sifatida alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, u mustaqil fikrlash, talqin qilish va dalillash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ijodiy yozuv nafaqat til vositalarini o'zlashtirishga, balki talabanning shaxsiy pozitsiyasini yozma nutqda ifoda etishiga ham yordam beradi. U kasbiy kommunikatsiyaga tayyorgarlikning muhim elementi sifatida qaraladi, hamda tanqidiy va divergent tafakkurni faollashtiradi.

Iqtisodiy yo'nalishdagi talabalarni kasbiy tayyorlash tizimida yozma nutqning produktiv shaklini rivojlantirishning ahamiyati asoslab berilgan. Ijodiy yozuv nafaqat tilni o'rganish, balki o'z fikrini yozma shaklda ifoda etish, dalillash, mustaqil tahlil qilish va ma'lumotni moslashtirish ko'nikmalarini shakllantiruvchi pedagogik texnologiya sifatida qaraladi. Raqamlashtirish sharoitida va ko'p darajali kommunikatsiya vazifalari oldida turgan kelajak mutaxassislari uchun yozma

shakldagi ifodani turli janrlarda (ish yozishmalari, tahliliy va motivatsion matnlar) moslashuvchan qo'llay olish ko'nikmasi zarur.

Talabalarning yozma nutqni egallashdagi asosiy qiyinchiliklari tizimlashtirilgan: past motivatsiya, cheklangan o'quv vaqti, leksik-grammatik vositalarni yetarlicha bilmaslik, tanqiddan qo'rquv va original g'oyalarni yaratishdagi muammolar. Shuningdek, o'qituvchining metodik qo'llab-quvvatlovining yetishmasligi, ijodiylikni rag'batlantirmaydigan reproduktiv topshiriqlarning ustunligi ham muammo sifatida ko'rsatilgan. Nemis tili ko'pincha iqtisodiy yo'nalishdagi talabalar uchun ikkinchi yoki uchinchi xorijiy til bo'lganligi sababli, yozma shaklni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar kuchayadi.

Ushbu qiyinchiliklarning asosiy sababi sifatida ona tilining va o'rganilayotgan tilning grafikasi, sintaksisi va uslubidagi farqlar qayd etilgan. Pedagogik va lingvistik tajribaning umumlashtirilishi shuni ko'rsatadiki, tarjima ijodiy yozuvni o'rgatishda samarali metodik vosita bo'lishi mumkin, chunki u til moslashuvchanligini, uslubiy o'zgaruvchanlikni va madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantiradi. Yozma fikrlashni faollashtirish va matn qurishda kreativ yondashuvni shakllantirish vositasi sifatida ijodiy tarjimaning kognitiv va amaliy afzalliklari ko'rsatilgan.

1-jadval

Yozuv faoliyatining uch shaklining qiyosiy tavsifi

Mezon	Ijodiy yozuv	Oddiy yozuv	Yozma nutq
Maqsad	Original, ifodali va badiiy matnlarni yaratish	Ma'lumot, faktlar yoki ko'rsatmalarni yetkazish	Muloqot qilish, ma'lumot yetkazish, fikr va g'oyalarni ifodalash
Shakl	Turli janrlar va uslublardan foydalanish (hikoyalar, she'rlar, esselar, ssenariylar va boshqalar)	Rasmiy va norasmiy maktublar, hisobotlar, maqolalar, qaydlar va boshqalar	Turli shakllar, jumladan maktublar, esselar, maqolalar, qaydlar, hisobotlar va boshqalar
Ijodkorlik	Tasavvur, assotsiativ fikrlash va originalga urg'u berish	Aniq, tushunarli va mantiqiy ifodaga e'tibor berish	Ijodkorlik elementlarini o'z ichiga olishi mumkin, lekin asosiy urg'u aniqlik va tushunarli ifodaga beriladi
Emotsiyalar	Muallifning his-tuyg'ulari, emotsiyalari va shaxsiy tajribalarini ifodalash	Shaxsiy emotsiyalar va fikrlarni minimal darajada ifodalash	Kontekst va maqsadga qarab emotsiyalarni ifodalashni o'z ichiga olishi mumkin
O'quvchi	Keng auditoriyaga mo'ljallangan (o'quvchilar, tomoshabinlar yoki tinglovchilar)	Muayyan qabul qiluvchi yoki odamlar guruhiga mo'ljallangan (hamkasblar, rahbariyat va boshqalar)	Kontekstga qarab muayyan qabul qiluvchi yoki odamlar guruhiga mo'ljallangan

Ikkinchi bob, **“Iqtisodiyot yo‘nalishdagi talabalarni xorijiy tilda ijodiy yozish ko‘nikmalarini o‘rgatish metodikasi”** deb nomlanib, unda nemis tilini kasbiy kontekstda o‘rganayotgan talabalar uchun kreativ yozma kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan maxsus metodikani o‘quv jarayoniga joriy etish zarurati asoslab berilgan. Ushbu bobda asosiy e‘tibor O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlarning iqtisodiy oliy ta‘lim muassasalari o‘quv rejalari (syllabus)ning taqqoslamali tahliliga qaratilib, yozma nutqqa o‘rgatishdagi yondashuvlarda mavjud prinsipial farqlar aniqlangan.

Xususan, O‘zbekistondagi oliy ta‘lim muassasalarida 61010100 – “Turizm va mehmonxona xo‘jaligi” hamda 61010400 – “Logistika” yo‘nalishlari bo‘yicha amalda bo‘lgan o‘quv rejalarining tahlili shuni ko‘rsatdiki, “Nemis tili” fani bakalavriatning 1–4-semestrlarida o‘qitiladi va 60 dan 90 gacha akademik soatni tashkil etadi. Biroq, o‘quv dasturlarining mazmuni, asosan, leksik-grammatik ko‘nikmalar, tinglab tushunish va monologik nutqni rivojlantirishga qaratilgan. Yozma nutqning, ayniqsa, ijodiy yozuv komponenti esa juda fragmentar tarzda namoyon bo‘lgan. Ko‘pchilik hollarda yozma topshiriqlar reproduktiv faoliyat turlariga – anketalarni to‘ldirish, standart xatlar tuzish, qisqa rezyume va bayonlar yozishga qaratilgan bo‘lib, ijodiy yozuv bo‘yicha tizimli didaktik ishlov mavjud emas.

Mazkur muammo ayniqsa Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining (TDIU) namunaviy ishchi dasturida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Unda ijodiy yozuv ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan modullar yoki baholash vositalari mavjud emas. Dasturga akademik yozuv, yozma refleksiya yoki matnning janrli transformatsiyasiga oid kurslar kiritilmagan, bu esa xorijiy til kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi – yozma kreativ mahsuldorlikning yetarli darajada yoritilmaganligini ko‘rsatadi.

Bunga qarama-qarshi o‘laroq, QS xalqaro reytingining TOP-300 ro‘yxatiga kiruvchi yetakchi xorijiy universitetlarda, jumladan Vena iqtisodiyot universiteti (WU Vienna University of Economics and Business)da, talabalar yozma mahsuldorligini rivojlantirishga ancha izchil e‘tibor beriladi. Business and Economics yo‘nalishi bo‘yicha (180 ECTS, 6 semestr) bakalavriat dasturida Introduction to Academic Writing (2 ECTS) deb nomlangan alohida modul joriy etilgan. Uning maqsadi – talabalarni yozma matnlarni mustaqil ravishda yaratishga, ya‘ni janrli va mantiqiy tuzilmasidan tortib uslubiy bezak va argumentatsiyagacha bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirishdir. Kurs tavsifida kreativ topshiriqlar, yozma refleksiya, madaniyatlararo amaliyot va raqamli resurslar majburiy tarkibiy qismlar sifatida qayd etilgan bo‘lib, ular akademik va kasbiy kommunikatsiyada zarur bo‘lgan moslashuvchan yozuv ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu dastur universitet rasmiy saytida “BSc-Brochure-BBE.pdf” nomli axborot buklet ko‘rinishida ochiq e‘lon qilingan.

Mazkur o‘quv dasturlarining mazmuni va tuzilmasidagi aniqlangan tafovutlar muallif tomonidan xalqaro tajriba va O‘zbekistondagi kasbiy ta‘lim

xususiyatlarini hisobga olgan holda oʻziga xos metodika ishlab chiqilishiga asos boʻldi. Shu asosda tadqiqotning ilmiy yangiligi asoslab berilgan — iqtisodiy yoʻnalishdagi talabalar uchun nemis tilida kreativ yozma kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan model va mashqlar majmuasi yaratilgan.

Nemis tilini oʻrganayotgan iqtisodiy yoʻnalishdagi talabalar bilan oʻtkazilgan soʻrovnomalar, kuzatuvlar va yozma ishlar tahlili ijodiy yozuv koʻnikmalarini shakllantirish jarayonida uchraydigan eng keng tarqalgan qiyinchilik turlarini aniqlash imkonini berdi. Ushbu qiyinchiliklar quyidagi yoʻnalishlar boʻyicha tasniflangan:


2-jadval

Talabalarni ijodiy yozuvga oʻrgatishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar tipologiyasi

Qiyinchilik turlari	Mazmun
Lingvistik	Leksik zahiraning yetarli emasligi, soʻz tanlashdagi qiyinchiliklar, gap tuzilmasining grammatik jihatdan notoʻgʻriligiga moyillik
Psixologik	Oʻziga ishonchning yetishmasligi, xatolikdan qoʻrquv, oʻz fikrini erkin bayon qilishdan choʻchish, past motivatsiya
Intellektual	Matnni tashkil qilishdagi qiyinchiliklar, mantiqiy dalillashda muammolar, gʻoyalarni ilgari surishdagi murakkablik
Metodik	Yozuv strategiyasining yoʻqligi, fikrlashning qoliplanishi, matnni tahrir qilish koʻnikmasining boʻlmasligi
Motivatsion	Qiziqishning yetishmasligi, yozma topshiriqlarga rasmiy va “foydasiz” deb qarash

Qiyinchiliklar tipologiyasi metodikani loyihalash asosiga aylandi hamda har bir oʻquv bosqichida talabalarni manzilli qoʻllab-quvvatlash va aniqlangan toʻsiqlarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Mualliflik modeli asoslab berilgan boʻlib, u motivatsion-maqсадli, mazmun-faoliyatli, operatsion va baholovchi-natijaviy komponentlarni ifodalaydi. Metodika oʻzaro bogʻliq uch bosqich – tayyorgarlik, mahsulдорlik va baholash bosqichlariga asoslanadi va talabalarining til darajasi, kasbiy yoʻnalishi, shaxsiy va kognitiv xususiyatlarini inobatga oladi. Modelning vizual tuzilmasi sxemada (1-rasmga qarang) koʻrsatilgan boʻlib, u yerda oʻquv bosqichlari, tamoyillar, usullar, amaliy yoʻnalishlar, qoʻllaniladigan vositalar va kutilayotgan natijalar aks ettirilgan. Model kompetensiyaga asoslangan, integratsiyalashgan va matnga yoʻnaltirilgan yondashuvlarga tayanadi, yozma faoliyatning rasmiy va ijodiy jihatlarini uygʻunlashtiradi hamda raqamli taʼlim muhitiga moslashtirilgan.



1-rasm. Iqtisod yoʻnalishi talabalarining ijodiy yozuvini oʻrgatish boʻyicha mualliflik modeli

Taqdim etilgan model o'quv jarayonining tashkiliy-va mazmuniy tamoyillarini, shuningdek, aniq ish shakllari va usullarini o'z ichiga olgan metodik tizimni yaratish asosini tashkil etdi. Modelning amaliyotda qo'llanishi talabalarning kasbiy yo'nalishiga va ularning til kompetensiyasi darajasiga mos mashqlar majmuasini ishlab chiqish orqali amalga oshirildi. Ushbu mashqlar ijodiy yozma kompetensiyani shakllantirish va yozma faoliyatni kasbiy chet tilidagi kontekstga integratsiya qilish vazifalarini hal etishga yo'naltirilgan.

Ishlab chiqilgan mashqlar majmuasi quyidagi topshiriqlarni qamrab oladi: xizmat yozishmalari, esse yozish, mini-keyslarga javob berish, kasbiy matnlarni moslashtirish, janrli va uslubiy o'zgarishlar bilan tarjima qilish, yozma kvestlar. Ayniqsa, ijodiy tarjima elementlari bilan boyitilgan topshiriqlar alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular nafaqat til moslashuvchanligini, balki uslubiy ongini ham shakllantiradi. Yozma ishlarni baholash mezonlari tizimi taqdim etilgan, shuningdek, refleksiya va o'z-o'zini baholash vositalari ham taklif etilgan. Ilovalarda mashqlar tasnifi, shakllantirilayotgan kompetensiyalar va topshiriqlar turlari darajalar bo'yicha keltirilgan.

Mualliflik metodikasiga kiritilgan mashqlardan namunalari:

1. Reklama matnini kreativ moslashtirish bilan tarjima qilish:

“Zeit ist Geld – und Ihre Zeit ist kostbar! Entdecken Sie unsere innovative Finanz-App, die Ihre Ausgaben analysiert, Budgets automatisch erstellt und Ihnen hilft, smarter zu sparen. Laden Sie sie jetzt kostenlos herunter und starten Sie in eine neue finanzielle Zukunft.”

2. Ish yuzasiga doir maktubni tarjima qilish:

*“Sehr geehrte Damen und Herren,
wir möchten Sie darüber informieren, dass unsere Firma ab dem 01. Oktober 2025 eine neue Preisstruktur für unsere Logistikdienstleistungen einführt. Ziel dieser Änderung ist es, unsere Servicequalität weiter zu verbessern und transparentere Konditionen zu bieten.*

Für Rückfragen stehen wir Ihnen jederzeit gerne zur Verfügung.

Mit freundlichen Grüßen,

Logistik GmbH”

3. “Agar... bo'lsa nima bo'lardi?” andozasi asosidagi ijodiy yozuv:

Talabaga topshiriq beriladi: “Was wäre, wenn Bargeld plötzlich verboten wäre?” (Agar birdaniga naqd pul taqiqlansa, nima bo'lardi?) – Iqtisodchi, jurnalist yoki oddiy fuqaro nomidan mini-esse yoki hikoya yozilishi kerak.

Beispiel: “Was wäre, wenn Bargeld plötzlich verboten wäre?”

Als junger Wirtschaftsjournalist stelle ich mir vor, wie sich unser Alltag verändern würde, wenn Bargeld über Nacht verschwindet. Die Cafés, in denen man früher schnell einen Espresso mit ein paar Münzen bezahlte, würden nur noch Kartenzahlung akzeptieren. Spontane Käufe auf dem Wochenmarkt? Geschichte. Für ältere Menschen ohne digitale Kompetenz wäre dies ein dramatischer Einschnitt in ihre Lebenswelt.

Die Schattenwirtschaft würde neue Wege finden, digitale Schlupflöcher zu nutzen, während viele Bürger sich Sorgen um ihre Datensicherheit machten. Gleichzeitig könnte der bargeldlose Alltag die Effizienz von Transaktionen erhöhen, Steuerehrlichkeit fördern und neue Technologien im Zahlungsverkehr vorantreiben.

Aber wäre eine Gesellschaft ohne Bargeld wirklich freier? Oder gläserner?

Durch diese Gedankenübung wird deutlich: Der Verzicht auf Bargeld würde weit mehr als nur unser Bezahlungssystem verändern – er würde unsere Werte, Gewohnheiten und unser Verständnis von Freiheit und Kontrolle in Frage stellen.”

Ishlab chiqilgan metodika raqamli resurslar va rolli topshiriqlardan foydalanishni nazarda tutadi, bu esa talabalarning motivatsiyasini oshiradi hamda kasbiy sohada matnlar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Metodika rasmiy (formal) va funksional yondashuvlarni uyg‘unlashtirgan holda yozma kreativ kompetensiyani shakllantiradi. Bobning ilmiy yangiligi — kreativ yozish tizimini iqtisodiy yo‘nalishdagi oliy o‘quv yurti sharoitlari va raqamli ta‘lim muhiti bilan moslashtirishda namoyon bo‘ladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Nemis tilida ijodiy yozishni o‘rgatish bo‘yicha tajriba-sinov ishlari”** deb nomlanib, unda iqtisodiy yo‘nalishdagi talabalarda nemis tilida ijodiy yozuv ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini tekshirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlari bayon etilgan.

Konstatatsiya bosqichida talabalarning yozma nutq ko‘nikmalari, motivatsiyasi va ijodiy yozuv topshiriqlarini bajarishga tayyorlik darajasi diagnostika qilindi. Natijalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, aksariyat talabalar mustaqil ravishda fikrini yozma shaklda ifoda etishda, ayniqsa janrli moslashtirish, matnni original qurish, aniq fikrni ifodalash va uslubiy me‘yorlarga rioya qilishda qiyinchiliklarga duch keladi. Shuningdek, yozma nutqning kelgusidagi kasbiy faoliyatdagi o‘rni yetarlicha anglanmagani aniqlandi.

Formativ bosqichda muallif tomonidan ishlab chiqilgan metodika amaliyotga joriy qilindi. Eksperimental guruhlarda mashg‘ulotlar model, mashqlar tizimi va raqamli resurslardan foydalanilgan holda o‘tkazildi. Talabalar shaxsiy esse, ish yozishmalari va iqtisodiy matnlarni annotatsiya qilishgacha bo‘lgan janrlarda ijodiy yozuvni rivojlantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlarni bajardilar. O‘qitish jarayonida interpretatsiya, transformatsiya, uslubiy qayta ifodalash, kreativ elementli tarjima, tahrirlash va guruhli yozuv topshiriqlari faol qo‘llanildi.

Nazorat bosqichida yozma kompetensiyaning shakllanish darajasi baholandi. Baholash oldindan belgilangan mezonlar asosida olib borildi: til jihatidan rasmiylashtirish, fikr izchilligi, originalilik darajasi, janrga va kommunikativ vazifaga muvofiqlik. Eksperimental va nazorat guruhlari natijalari taqqoslanganda, yangi metodika asosida tahsil olgan talabalar ancha yuqori ko‘rsatkichlarga erishganliklari aniqlandi. Original yozma yechimlar sonining ortishi, mustaqillik va motivatsiyaning o‘sishi, matn tuzilmasi va maqsadini anglash darajasi kuchaygani qayd etildi.

Natijalar baholov mezonlari bo'yicha yozma ko'nikmalar rivojlanish dinamikasini aks ettiruvchi jadval, diagramma va grafiklar shaklida taqdim etilgan. Ma'lumotlar miqdoriy ishlovdan o'tkazildi (statistik metodlar asosida), bu esa eksperimental va nazorat guruhlari o'rtasidagi farqlar ishonchliligini tasdiqladi.

